Yaqin xorijdagi iqtisodchi olimlar – M.A. Abramov, A.A. Bogatova, A.I. Zotova, D.A. Vysokov, R.B. Grib, M.V. Mamuta, O.S. Tenetnik, I.N. Rykova, O.E. Tonyan, Ye.M. Zatsepin va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mikromoliyalashtirish bozori infratuzilmasi, mikromoliyalashtirishning xalqaro tajribasi, mikromoliyaviy institutlarni tartibga solish masalalari hamda ushbu tizimning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilingan.²

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda tashabbuskor insonlar muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ular iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga bevosita va samarali hissa qo'shadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday insonlar "tadbirkorlar" yoki "tadbirkorlik subyektlari" sifatida e'tirof etiladi. "Tadbirkor" tushunchasini ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan fransuz iqtisodchisi R. Kantillon o'z asarlarida tadbirkorni risk sharoitida faoliyat yurituvchi shaxs sifatida tavsiflagan hamda boylikning asosiy manbai sifatida yer va mehnat omillarini ta'kidlagan.³ Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini risk asosida yer va mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali iste'molchilar talabini qondirish hamda foyda olishga yo'naltirilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyat shakli sifatida izohlash mumkin.

Keyinchalik bu g'oya nemis iqtisodchilari I. Tyunen va F. Nayt tomonidan yanada rivojlantirildi. Ular "tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalarini ayniqsa kutilmagan risklar bilan bog'lagan hamda ushbu atamalarning asosiy ajralib turuvchi xususiyati sifatida "yaratuvchanlik" (innovatsion yondashuv)ni ilgari surganlar.⁴

Tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishidagi ikkinchi yo'nalishni esa J.-B. Say va A. Marshall qarashlari bilan bog'lash mumkin. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatining asosiy xususiyati ishlab chiqarishning

- 1 Yunus M. Banker to the Poor (First ed.). United States: PublicAffairs, 1999. 312 p.; Yunus Muxammad, Joli Alan. Создавая мир без бедности. Социальный бизнес и будущее капитализма. – М.: «Альпина Паблишер», 2009. – С. 90.; Hulme D., Maitrot M. Has Microfinance Lost its Moral Compass? // Economic and Political Weekly. 2014. Vol. 49, № 48. P. 77-85.; Hulme D., Mosley, P. Finance against Poverty, 1996 Routledge, London. 451 p.; Ghatak M., Guinnane T. The economics of lending with joint liability: theory and practice // Journal of Development Economics, Elsevier. 1999. № 60(1). P. 195-228.; Armendariz B., Morduch J. Microfinance Beyond Group Lending, The Economics of Transition. 2000. № 8, issue 2. P. 401-420.; Mossman M. Moving Beyond Microcredit // The New Yorker. 2015. URL: <https://www.newyorker.com/business/currency/moving-beyond-microcredit>; Morduch J., Conning J. Microfinance and Social Investment, NYU Wagner Research Paper No. 2011-02 // Annual Review of Financial Economics. 2011. Vol. 3. P. 407-434.; Bateman M., Chang H. Microfinance and the Illusion of Development: From Hubris To Nemesis in Thirty Years // World Economic Review. 2012. № 1. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2385482; Сирополис Н.К. Управление малым бизнесом: Рук. для предпринимателей: Пер. с англ. – Москва: Дело, 1997. – 672 с.
- 2 Абрамова М.А. и др. Формирование качественной инфраструктуры рынка микрофинансирования и кредитной кооперации: зарубежный и российский опыт: монография. – М.: РУСАЙНС, 2016. – С. 152.; Богатова А.А., Зотова А.И. История зарождения и развития микрофинансирования в зарубежных странах // Вестник науки и образования. 2017. №6 (30). – С. 36-39.; Высоков Д.А. Развитие микрофинансирования: международный опыт и российская практика. Автореф. дисс. на соиск.уч.ст. к.э. н. – М.: МГИМО, 2022. – 28 с.; Греб Р.Б. Развитие сектора микрофинансирования в Российской Федерации. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Волгоград: ВГУ, 2008. – С. 27.; Мамута М.В., Тенетник О.С. и др. Микрофинансирование в России. – М.: ООО «КноРус», 2015. – 224 с.; Исследование системы регулирования микрофинансовых институтов в странах-участницах ЕАЭС и за рубежом / Под ред. д. э. н. И.Н.Рыковой. Научный доклад. – М.: Научно-исследовательский финансовый институт, 2016. – 77 с.; Тонян О.Э. Микрокредитование как фактор развития малого бизнеса в России: Автореф. дисс. на соиск.уч.ст. к.э. н. / Акад. народного хоз-ва при Правительстве РФ. – М., 2011. – 142 с.; Зацепина Е.М. Административно-правовое регулирование в сфере микрофинансовой деятельности. Автореф. дисс. на соиск.уч.ст. к.э. н. – М.: «Российский университет дружбы народов», 2017. – 29 с.
- 3 Автономов В. История экономических учений: Учеб. пос. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 784 с.; Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: Юрайт, 2018. – С. 16.
- 4 Ивашковский С.Н. Микроэкономика: Учебник. – 3-е изд., испр. – М.: Дело, 2002. – 416 с.; Горлова Е.Е. Развитие региональной системы предпринимательства в аграрной сфере. Автореф. дисс. на соиск.уч. ст. к.э.н. – Владивосток: Владивостокский государственный университет экономики и сервиса, 2018. – С. 14.



uch asosiy omili – yer, mehnat va kapitalni birlashtirish orqali namoyon bo'ladi.⁵ Shu bilan birga, ular tadbirkorning iste'dodi va boshqaruv qobiliyatini ishlab chiqarishni samarali tashkil etish hamda uni rivojlantirishdagi ajralmas muvaffaqiyat omili sifatida baholaganlar.

Birinci ikki nazariy yo'nalishning mantiqiy davomiyligi sifatida amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan "tadbirkorlik konsepsiyasi" alohida e'tiborga loyiqdir. Tadbirkorlik nazariyasini rivojlantirishdagi ushbu uchinchi yo'nalish bugungi kunga qadar ushbu sohaning fundamental va istiqbolli nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Y. Shumpeterning ilmiy qarashlariga ko'ra, iqtisodiy tizimning taraqqiyoti faqatgina mavjud ishlab chiqarish omillari — yer, mehnat va kapitaldan oqilona foydalanish bilangina emas, balki ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish kombinatsiyalarini yaratish va ularni uzluksiz takror ishlab chiqarishni ta'minlash orqali ham ro'y beradi.

Ushbu yondashuv quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:
 iste'molchilar uchun yangi mahsulotlar ishlab chiqarish;
 mavjud mahsulotlarning yangi, yaxshilangan sifatini yaratish;
 ishlab chiqarishning yangi, samarador usullarini joriy etish;
 yangi bozorlarni yoki mavjud bozorlarning yangi segmentlarini o'zlashtirish;
 xom ashyo va resurslarning yangi manbalarini aniqlash va ulardan foydalanish;
 mehnatni tashkil etishning innovatsion shakllarini qo'llash.

Shumpeter yondashuvi tadbirkorni innovatsiyalar tashabbuskori sifatida talqin qilgan bo'lib, u nafaqat mavjud tizimga moslashuvchi, balki uni yangilovchi va o'zgartiruvchi kuch sifatida qoraladi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel xotira mukofoti sovrindori Fridrix fon Xayek tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishida yangi sahifa ochgan olimlardan biridir. U tadbirkorlikning mohiyatini an'anaviy ishlab chiqarish yoki faoliyat turi doirasida emas, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish, ularni o'rganish va amaliyotga joriy etishdagi faoliyatda ko'radi.

F. Xayekning ta'kidlashicha, "tadbirkorlikning mazmuni avvalo o'ziga xos xulq-atvor, intuitsiya, tafakkur yuritish qobiliyati hamda iqtisodiy imkoniyatlarni ilg'ay olish va ulardan samarali foydalana olish iste'dodida namoyon bo'ladi".⁶

Bu yondashuvga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati faqat mavjud resurslarni boshqarish emas, balki iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar va o'zgaruvchan sharoitlarda innovatsion yechimlar topa olish salohiyatini ham o'z ichiga oladi.

O'zbek iqtisodchi olimlari orasida akademik S. G'ulomov tadbirkorlik mohiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, "tadbirkorlikning muhim xususiyati – bu uning harakatchanligi va jo'shqinligidir. Tadbirkor shunday shaxski, u pul mablag'lari, xom ashyo va mehnat resurslarini birlashtirib, yangi mahsulot, yangi biznes yo'nalishi yoki yangi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi yoki mavjud ishlab chiqarish faoliyatini takomillashtirish yo'lida innovatsion yondashuvlarni joriy qiladi".⁷

Shuningdek, A.O'lmasov va A.Vahobovlar ham tadbirkorlikning mohiyatini chuqur tahlil qilgan. Ularning ta'kidlashicha, "tadbirkorlik mohiyatan biznesning asosiy shaklidir. Biroq har qanday biznesni tadbirkorlik deb atab bo'lmaydi. Buning uchun faoliyatda yaratuvchanlik, yangilik kiritish va tashabbuskorlik kabi xususiyatlar bo'lishi lozim".⁸ Tadbirkorlik faoliyatiga oid yondashuvlar nafaqat ilmiy adabiyotlarda, balki milliy qonunchilikda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) — bu tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir."⁹ Mazkur yondashuvlar tahlilidan ko'rinadiki, tadbirkorlik – bu nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki innovatsion fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, riskni o'z zimmasiga olish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali yangi qiymat yaratishga yo'naltirilgan kompleks jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraktsiya, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining mohiyatini qonun hujjatlarida

5 Кларк Дж.Б. Распределение богатства. – М.: Соцэкгиз. Ленингр. отд-ние, 1934. – С. 40.; Сажина М.А. Экономическая теория: учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2007. – 672 с.

6 Fridrix Avgust fon Xayek. Индивидуализм и экономический порядок. Глава 6. «Свободное» предпринимательство и конкурентный порядок – Гуманитарный портал.

7 G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes: Iqtisodiyot yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002. 43-b.

8 O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: Sharq, 2006. 142-b.

9 O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-son "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 3-moddasi.



belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan shaxslarning mol-mulkdan samarali foydalanish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan tizimli ravishda foyda olishga qaratilgan, tavakkalchiliklar asosida amalga oshiriladigan tashabbuskor mustaqil faoliyat tashkil qiladi. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi zarur:

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan – tadbirkorlik faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Bu yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida majburiy ro'yxatdan o'tishni anglatadi;

– mol-mulkdan samarali foydalanish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish – bular tadbirkorlik faoliyatining asosiy shakllari. Tadbirkorlar o'z mulki yoki ijaraga olingan mulkdan foydalanishi, mahsulot ishlab chiqarishi va sotishi, shartnoma bo'yicha ishlarni bajarishi, aholi va tashkilotlarga turli xizmatlar ko'rsatishi mumkin;

tizimli ravishda foyda olish – tadbirkorlik faoliyatining maqsadi bir martalik daromad emas, balki o'z faoliyati natijalaridan barqaror daromadga ega bo'lishdir. Bu mahsulot yoki xizmatlar sifatini oshirish, jarayonlarni optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqish doimiy ishlarni, tadbirlarni o'z ichiga oladi;

– tavakkalchiliklar asosida amalga oshiriladigan – tadbirkorlik faoliyati har doim risk bilan bog'liq. Investitsiyalar o'zini oqlamasligi, tovarlar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning pasayishi, yo'qotishlarga olib keladigan kutilmagan holatlar yuzaga kelishi mumkin;

tashabbuskor mustaqil faoliyat – tadbirkorlar o'z tajribasi, bilimi va bozor bahosidan kelib chiqib va yaratuvchanlik asnosida mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Ular o'z harakatlari va oqibatlari uchun javobgardirlar.

Mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish natijasida aholining iqtisodiy faol qismi mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanib, o'zini o'zi band qilish yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning iqtisodiy subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. "Jahon mikromoliyalashtirish bozori" bo'yicha so'nggi hisobotlarda qayd etilishicha, global mikromoliyalashtirish bozori hajmi 2024-yilda 279,22 milliard AQSh dollarini, 2025-yilda esa 310,10 milliard dollarni tashkil etgan. Prognozlariga ko'ra, 2034-yilga kelib bu ko'rsatkich 797,11 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Bu raqamlar mikromoliyalashtirish sohasining jadal rivojlanayotganligini va global iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini tasdiqlaydi.¹⁰ 2019-yilda dunyo bo'yicha 140 milliondan ortiq kishi turli mikromoliyaviy xizmatlardan foydalangan bo'lsa, hozirgi vaqtda bu ko'rsatkich 200 millionga yaqin mijozni tashkil etmoqda.¹¹ Ushbu raqamlar mikromoliyalashtirish sohasiga bo'lgan talabning izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Natijalarga ko'ra, 2025–2034-yillar davomida global mikromoliyalashtirish bozori hajmi yiliga o'rtacha 11,06 foizga o'sadi. Bu esa nafaqat mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining oshib borishini, balki ushbu xizmatlarning iqtisodiy faoliyatdagi o'rining tobora kuchayib borayotganini ham anglatadi. Bozor hajmining kengayishi va mijozlar sonining ko'payishi, bir tomondan, mikromoliyaviy xizmatlarga ehtiyojning ortayotganligini bildirsa, boshqa tomondan, bu sohani rivojlantirish, xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishida mikromoliyalashtirishning tutgan o'rni ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda kam ta'minlangan oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mikromoliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, mikromoliyaviy tashkilotlar va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tartibga solish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mikromoliyalashtirishning o'rini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan xizmatlarni joriy etish va rivojlantirish borasida muayyan tashabbuslar ilgari surilmoqda. 2024–2026-yillarda mikromoliyalash bozorining hajmini kamida besh barobarga oshirish, mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik subyektlarini qamrab olish hamda rasmiy daromadga ega bo'lmagan 500 mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi band qilishi va biznesni rivojlantirishiga ko'maklashish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.¹² Mazkur strategik maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash, bir tomondan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda mikromoliyalashtirishning real iqtisodiy rolini oshirsa, boshqa tomondan, ushbu yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasining bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar ijrosini ta'minlashga muayyan darajada xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi

10 Анализ размера и доли рынка микрофинансирования - Отчет об отраслевых исследованиях - Тенденции роста. Объем рынка микрофинансирования превысит 797,11 млрд долларов США к 2034 году.

11 Тренды мирового рынка микрофинансирования. Microfinance-Barometer-2019_web-1.pdf (convergences.org).


12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PQ-364-son "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.



Prezidentning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-sonli “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, 2023-yil 10-noyabrdagi PQ-364-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-sonli “Aholini kichik va o‘rta biznesga jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 19-apreldagi 161-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi nuqtayi nazaridan mazkur tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati katta hisoblanadi.


Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari¹³

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ana shunday o‘ziga xos xususiyatlari sabab aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur sohaga davlat tomonidan berilayotgan e‘tibor natijasida yil sayin ijobiy yutuq va iqtisodiy o‘sishga erishilganligini ko‘rish mumkin. Dunyo bo‘yicha barcha korxonalarning 90 foizdan ko‘pi mikro, kichik va o‘rta biznes toifasiga kiradi va mazkur soha global yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning yarmidan ko‘proq qismini ta‘minlaydi hamda kichik va o‘rta biznes butun dunyodagi barcha ish o‘rinlarining 70 foizini tashkil qiladi. Bunday holat kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishning asosiy omili ekanligini ko‘rsatadi. Quyidagi 2-rasm ma‘lumotlari aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligi ko‘p jihatdan tadbirkorlikning keng quloch yoyishi va rivojlantirish darajasiga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

13 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. 2024-yilda rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi rolini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar (foizda)¹⁴

Darhaqiqat, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy kuch va omil, balki ularsiz barqaror iqtisodiy rivojlanish mumkin emas. Bu sohada band bo'lgan iqtisodiy faol aholi sonini hisobga oladigan bo'lsak, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat barqarorligining tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

Bir vaqtning o'zida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish uni moliyalashtirish, moliyaviy-qo'llab-quvvatlash masalasiga borib taqaladi. Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, kichik tadbirkorlik subyektlarining o'ziga xos xususiyatlari va muhim belgilari sabab, ushbu sohani moliyalashtirishda mikromoliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan mikromoliyalashtirishning mazmun-mohiyati turli davrlarda iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha talqin qilinayotganligini ta'kidlab o'tmoq zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan, ularning faoliyatini mikromoliyalashtirish orqali rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mikromoliyalashtirish tizimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun muhim moliyaviy manba bo'lib, ayniqsa, bank kreditlariga kira olmaydigan, moliyaviy ta'minoti cheklangan subyektlar uchun zarur vositadir.

Biroq amaliyotda ushbu tizimning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

- mikromoliyaviy xizmatlarning hududiy va tarmoq bo'yicha notekis taqsimlanganligi;
- foiz stavkalarining yuqoriligi va garov talablarining qat'iyligi;
- axborot va moliyaviy savodxonlikning pastligi;
- mikromoliyaviy institutlar faoliyatining cheklangan resurs bazasi;
- tartibga solish mexanizmlarining yetarlicha mukammal emasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish mikromoliyalashtirish tizimining inklyuzivligini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha imtiyozlar, yengillashtirilgan kredit liniyalari, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar zarurdir. Shunday qilib, mikromoliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish va u orqali tadbirkorlik subyektlarini samarali qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunus M. Banker to the Poor (First ed.). United States: Public Affairs, 1999. 312 p.; Yunus Muxammad, Joli Alan. Создавая мир без бедности. Социальный бизнес и будущее капитализма. – М.: «Альпина Паблишер», 2009. – С. 90.; Hulme D., Maitrot M. Has Microfinance Lost its Moral Compass? // Economic and Political Weekly. 2014. Vol. 49, № 48. P. 77-85.; Hulme D., Mosley, P. Finance against Poverty, 1996 Routledge, London. 451 p.; Ghatak M., Guinnane T. The economics of lending with joint liability: theory and practice // Journal of Development Economics, Elsevier. 1999. № 60(1). P. 195-228.; Armendáriz B., Morduch J. Microfinance Beyond Group Lending, The Economics of Transition. 2000. № 8, issue 2. P. 401-420.; Mossman M. Moving Beyond Microcredit // The New Yorker. 2015. URL: <https://www.newyorker.com/magazine/2015/05/11/moving-beyond-microcredit>

14 Доля мсб развитых странах.; Предприятия малого бизнеса обеспечивают половину глобального ВВП - ИА «Финмаркет».



- www.newyorker.com/business/currency/moving-beyond-microcredit; Morduch J., Conning J. Microfinance and Social Investment, NYU Wagner Research Paper No. 2011-02 // Annual Review of Financial Economics. 2011. Vol. 3. P. 407-434.; Bateman M., Chang H. Microfinance and the Illusion of Development: From Hubris To Nemesis in Thirty Years // World Economic Review. 2012. № 1. URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2385482; Сирополис Н.К. Управление малым бизнесом: Рук. для предпринимателей: Пер. с англ. – Москва: Дело, 1997. – 672 с.
2. Абрамова М.А. и др. Формирование качественной инфраструктуры рынка микрофинансирования и кредитной кооперации: зарубежный и российский опыт: монография.–М.: РУСАЙНС, 2016. – С. 152.; Богатова А.А., Зотова А.И. История зарождения и развития микрофинансирования в зарубежных странах // Вестник науки и образования. 2017. №6 (30). – С. 36-39.; Высоков Д.А. Развитие микрофинансирования: международный опыт и российская практика. Автореф. дисс. на соиск.уч.ст. к.э. н. – М.: МГИМО, 2022. – 28 с.;Гриб Р.Б. Развитие сектора микрофинансирования в Российской Федерации. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Волгоград: ВГУ, 2008. – С. 27.; Мамута М.В., Тенетник О.С. и др. Микрофинансирование в России. – М.: ООО «КноРус», 2015. – 224 с.; Исследование системы регулирования микрофинансовых институтов в странах-участницах ЕАЭС и за рубежом / Под ред. д. э. н. И.Н.Рыковой. Научный доклад. – М.:Научно-исследовательский финансовый институт, 2016. – 77 с.; Тонян О.Э. Микрокредитование как фактор развития малого бизнеса в России: Автореф. дисс. на соиск. уч.ст. к.э. н. / Акад. народного хоз-ва при Правительстве РФ. – М., 2011. – 142 с.; Зацепина Е.М. Административно-правовое регулирование в сфере микрофинансовой деятельности. Автореф. дисс. на соиск.уч.ст. к.э. н. – М.: «Российский университет дружбы народов», 2017. – 29 с.
 3. Автономов В. История экономических учений: Учеб. пос. – М.: ИНФРА-М, 2000. – 784 с.; Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: Юрайт, 2018. – С. 16.
 4. Ивашковский С.Н. Микроэкономика: Учебник. – 3-е изд., испр. – М.: Дело, 2002. – 416 с.; Горлова Е.Е. Развитие региональной системы предпринимательства в аграрной сфере. Автореф. дисс. на соиск.уч. ст. к.э.н. – Владивосток: Владивостокский государственный университет экономики и сервиса, 2018. – С. 14.
 5. Кларк Дж.Б. Распределение богатства. – М.: Соцэкгиз. Ленингр. отд-ние, 1934. – С. 40.; Сажина М.А. Экономическая теория: учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Норма, 2007. – 672 с.
 6. [Fridrix Avgust fon Hayek. Индивидуализм и экономический порядок. Глава 6. «Свободное» предпринимательство и конкурентный порядок – Гуманитарный портал.](#)
 7. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes: Iqtisodiyot yo'nalishidagi Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2002. 43-b.
 8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: Sharq, 2006. 142-b.
 9. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-son "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 3-modda.
 10. [Анализ размера и доли рынка микрофинансирования – Отчет об отраслевых исследованиях – Тенденции роста. Объем рынка микрофинансирования превысит 797,11 млрд долларов США к 2034 году.](#)
 11. [Тренды мирового рынка микрофинансирования. Microfinance-Barometer-2019_web-1.pdf \(convergences.org\).](#)
 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PQ-364-son "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
 13. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
 14. [Доля мсб развитых странах; Предприятия малого бизнеса обеспечивают половину глобального ВВП - ИА "Финмаркет".](#)



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>